

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.M.Qandov	
Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
U.J.Mansurov	
Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
M.M.Alimova	
1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi	312
J.Museyibzada	
Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
A.A.Azizov	
Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida)	324
A.T.Ahmedov	
Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	328
D.A.Urinbayeva	
Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
T.Ch.Xoliyarov	
Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi	340
X.X.Mamajonov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniyalar imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar	347
I.S.Yusupov	
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi	351
F.K.Jumanazarova	
Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
U.X.Gulmatov	
O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni	359

ADABIYOTSHUNOSLIK

U.B.Matmurotova	
Badii tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xhatish misolida.....	364
Sh.A.Safarova	
"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish	369
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar	374

TILSHUNOSLIK

A.B.Uralov	
Til sathlarida nomutanosiblik	381
A.Sh.Muxamadiyev	
Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova	
Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida	393
U.Sh.Turaeva	
Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
Y.T.Rakhmonkulova	
A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages	401
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli	405
M.O.Usarova	
Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari	413
Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова	
Смыковые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер	417
B.Q.Nomonov	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



УО'К: 364

**IJTIMOIY HIMOYA TIZIMIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLANISHINING
MAQSAD VA VAZIFALARI HAMDA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI**

**ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН В СИСТЕМЕ
СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ И МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ**

**GOALS AND TASKS OF ENSURING WOMEN'S EMPLOYMENT IN THE SOCIAL
PROTECTION SYSTEM AND IMPLEMENTATION MECHANISMS**

Jumanazarova Fotima Kuchkarbayevna 
Fan va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston jamiyati demokratik davlat va mustaqil iqtisodiyotni barpo qilish, rejali ma'muriy tizim oqibatlarini bartaraf etish va bozor munosabatlariiga o'tish zarurati bilan bog'liq bo'lgan g'oyat murakkab masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam (nogironlar) hamda ayrim toifadagi (voyaga yetmagan farzandlari bor yolg'iz onalar) xodimlarning ish haqiga solinadigan daromad solig'ida ham mavjud. Xotin-qizlar bandligini ta'minlanishi iqtisodiyotni jadal rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Bu mamlakatning yalpi ichki mahsulotini o'sishiga ham sabab bo'ladi.

Аннотация

В данной статье анализируются сложные вопросы, связанные с становлением демократического государства и независимой экономики в обществе Узбекистана, ликвидацией последствий плановой административной системы, необходимости перехода к рыночным отношениям. Он также включается в подоходный налог, взимаемый с заработной платы работников класса, нуждающегося в социальной защите (инвалиды) и отдельных категорий (матери-одиночки с несовершеннолетними детьми). Обеспечение занятости женщин не могло не сказаться на быстром развитии экономики. Это также позволит увеличить валовой внутренний продукт страны.

Abstract

This article analyzes the complex issues related to the establishment of a democratic state and an independent economy in the society of Uzbekistan, the elimination of the consequences of the planned administrative system, and the need to transition to market relations. It is also included in the income tax levied on the wages of employees of a class in need of social protection (disabled persons) and certain categories (single mothers with minor children). Ensuring women's employment did not fail to have an impact on the rapid development of the economy. This will also increase the gross domestic product of the country.

Kalit so'zi: Xotin-qizlar, iqtisodiy komponent, tadbirdorlik, kasanachilik, nodavlat va notijorat, ishsizlik.

Ключевые слова: Женщины, экономическая составляющая, предпринимательство, домашнее хозяйство, негосударственная и некоммерческая деятельность, безработица.

Key words: Women, economic component, entrepreneurship, household, non-state and non-profit, unemployment.

KIRISH

XX asrning 90-yillariga kelib, O'zbekiston jamiyati demokratik davlat va mustaqil iqtisodiyotni barpo qilish, rejali ma'muriy tizim oqibatlarini bartaraf etish va bozor munosabatlariiga o'tish zarurati bilan bog'liq g'oyat murakkab masalalar turkumini hal etishga duch keldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri qiyinchiliklari aholining, shu jumladan xotin-qizlarning ham turmush darajasiga, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligiga ta'sir qilmay qolmadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng aholi turmush darajasini yuqori darajada ta'minlash, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish va uning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi

TARIX

siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi⁷⁴.

Nazariy jihatdan olib qaraganda, aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri – uning mehnat sohasi va u bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarni qondirish yo'llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli odamlarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatga qatnashishini ko'rsatadi. Biroq ish bilan bandlik toifasi faqat iqtisodiy komponent bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik, avvalo ijtimoiy munosabatlardir, shu bois qandaydir azaliy, bevosita yuzaga kelgan hodisa sifatidagi ijtimoiylik ularning asosiy xususiyati hisoblanadi⁷⁵.

Shu o'rinda qayd etish joizki, davlat mustaqilligiga erishilgan ilk yillarda respublika aholisi, xususan, ayollarning turmush sharoiti va oilaviy daromadi juda past bo'lib, aksariyat qismi xotin-qizlardan iborat bo'lgan maktab o'qituvchilarining o'rtacha maoshi 600-700 so'mni tashkil etgan. To'quvchilik korxonasi ishchisining maoshi esa 100 so'm⁷⁶ atrofida bo'lib, xotin-qizlar ehtiyojlarini to'la qoplamagan edi⁷⁷.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, 1992-yili respublikada istiqomat qilgan xotin-qizlarning 70 % og'ir, zararli, tungi ishlab chiqarish va jismoniy mehnat bilan shug'ullangan⁷⁸.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni bandligini ta'minlash masalasi lokal hudud misolida tarixiy-qiyosiy, tizimlilik, muammoli-xronologik metodlar asosida, obyektivlik tamoyiliga tayanib yoritilgani bois, ulardan mazkur tizimga oid metodologik-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublika sanoatida qo'l mehnati salmog'i 35,3%ni tashkil etgan bo'lsa, ayollar orasida 42,5 %dan iborat bo'lib, ishchi va xizmatchilarining umumiy sonida ayollar 2492 ming kishini, ya'ni 47 %ini tashkil etgan⁷⁹. Bu ko'rsatkich Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida 40 %ga ham yetmagan. Xorazm, Sirdaryo, Namangan, Buxoro va Andijon viloyatlarida ularning hissasi past bo'lgan. Faqat Toshkent shahridagina ishlovchilar umumiy miqdorida ayollarning ulushi yuqori, ya'ni 51,2% bo'lgan⁸⁰.

Bu davrda kadrlarning iste'dodi, salohiyati va tashabbuskorligi anketa ma'lumotlariga mos kelishi bilan o'lchanar edi⁸¹. Iqtisodiyotdagi kamchilik va nuqsonlarni tuzatish hamda uning rivojlanishi mutaxassis kadrlar tomonidan amalga oshirilar ekan, ularni shaxsiy varaqasiga qarab emas, balki mehnatsevarlik va tashabbuskorlik kabi jihatlarini inobatga olgan holda tanlash hamda o'z salohiyatdan keng foydalanishi uchun yetarli imkoniyatlar yaratib berilishi lozim bo'lgan. Shuningdek, ayollar nomoddiy ishlab chiqarish hisoblanadigan sog'liqni saqlash, kredit berish va sug'urta muassasalari, xalq ta'limi va madaniyat sohasida ham band bo'lgan⁸².

Zero, bu ayollar bandligini ta'minlab kelgan asosiy an'anaviy sohalar hisoblangan. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida esa aholini bandligi, jumladan, xotin-qizlar bandligi faqatgina davlat tashkilotlari tomonidan qamrab olinishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bunday sharoitda bandlik masalalaridagi kattaroq ulush xususiy tadbirkorlik hamda o'rtalik kichik biznesga tegishli bo'lishi kerak. Shuningdek, xotin-qizlar o'tasida tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi alohida huquqiy asoslar yaratilib, ularga imkoniyatlarni kengaytirish lozim. Bunda xotin-qizlar o'tasida biznesga doir bilimlarni keng targ'ib qilish, ular orasidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda bu boradagi "ustoz-shogird" tizimini takomillashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

⁷⁴ O'zbekistonning eng yangi tarixi, Muharrirlar: R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov. – Toshkent, 2023. – B. 119.

⁷⁵ Абдурахмонов Қ. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). – Тошкент, Mehnat, 2004. – Б.274.

⁷⁶ ЎзМА, 69 фонд, 04/8-15-иш, 1-рўйхат, 89- йиғма жилд, 109-варак

⁷⁷ ЎзМА, 69 фонд, 04/8-15-иш, 1-рўйхат, 89- йиғма жилд, 305-варак.

⁷⁸ ЎзМА, 69 фонд, 1-рўйхат, 93- йиғма жилд, 82-варак.

⁷⁹ ЎзМА, 69 фонд, 1-рўйхат, 96- йиғма жилд, 6-варак.

⁸⁰ Бобоҷонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 110.

⁸¹ Мадалиев А. Ўзбекистонинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти миллий моделини яратиш асослари. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 89.

⁸² ЎзМА, 69 фонд, 1-рўйхат, 93-йиғма жилд, 307-варак.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishning samarali mexanizmlaridan biri mehnat bozorini maqsadga muvofiq shakllantirish va rivojlantirish hamda uni tartibga solish hisoblanadi. Ma'lumotlar keltirilishicha, 2008-yil mobaynida respublikada 661 mingga yaqin, jumladan, kichik biznes sohasida – 374 mingta, xizmat ko'rsatish va servis sohasida – 220 mingta, kasanachilik hisobidan esa – 97 ming 800 ta yangi ish o'rirlari yaratilgan bo'lsa"[2], 2010-yili jami 950 mingdan ortiq ish o'rni tashkil etilib, umumiyl ish o'rirlarining 600 mingdan ziyodi yoki 65 foizi kichik biznes sohasi va fermer ho'jaliklariga, 210 mingdan ortig'i kasanachilik sohasiga to'g'ri kelgan[8]. Bunda xotin-qizlarning ish bilan ta'minlanishi asosan kasanachilik yo'nalishiga to'g'ri kelganligini ta'kidlash joiz.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish davr talabi hisoblanadi. Chunki respublikada aholining o'sish darajasi nafaqat rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan, balki rivojlangan davlatlarga nisbatan ham yuqoridir. Masalan, 1991-yilga nisbatan 2020-yilni oladigan bo'lsak, mamlakat aholisi 7,4 foizga[9] o'sgan, rivojlangan Yaponiya davlatida bu ko'rsatkich 3,5 foizga, Amerika Qo'shma Shtatlarida 1,8 foizga, rivojlanayotgan qo'shni Qozog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich 2,5 foizni, Tojikistonda esa 4,3 foizni tashkil etgan.

Bu tahlillar O'zbekistonda aholining o'sish darajasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Aholining o'sish darajasi esa o'z-o'zidan tabiiy ravishda respublikadagi ijtimoiy jarayonlarda, jumladan, bandlik masalalarida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Aholining bandligini ta'minlash, ishsizlikni bartaraf etish esa mehnat bozorining samarali mexanizmlarini to'la ishlashini talab etadi.

XULOSA VA TAKLIF

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida ijtimoiy himoya tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda aholi uchun ish o'rnlarni ko'paytirish, jumladan, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni nafaqat mamlakatda, balki xalqaro mehnat bozorida xaridorgir bo'lgan kasb-hunarlargacha o'qitish, oilali va yosh bolali ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini ishlab chiqish masalasi ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu jarayondagi asosiy vazifa esa xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini kengroq ishga solgan holda kambag'allikdan chiqib ketishga astoydil harakat qilishi kerakligini taqozo etadi. Shu nuqtai-nazardan xotin-qizlar ham o'z turmush hayotini farovon bo'lishini ta'minlashga harakat qilishlari talab etiladi. Hukumat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar va berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda daromad manbaiga ega bo'ladigan kasb-hunarni egallashlari va shu orqali hech bo'lmaganda o'zining iste'moli uchun kerak bo'ladigan daromadni topishga intilishlari kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekistonning eng yangi tarixi, Muharrirlar: R.H.Murtazayeva, A.A.Odilov. – Toshkent, 2023. – B. 119.
2. Абдурахмонов Қ. Мехнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). – Тошкент, Mehnat, 2004. – Б.274.
3. ЎзМА, 69 фонд, 04/8-15-иш, 1-рўйхат, 89- йигма жилд, 109-варақ
4. ЎзМА, 69 фонд, 04/8-15-иш, 1-рўйхат, 89- йигма жилд, 305-варақ.
5. ЎзМА, 69 фонд, 1-рўйхат, 93- йигма жилд, 82-варақ.
6. ЎзМА, 69 фонд, 1-рўйхат, 96- йигма жилд, 6-варақ.
7. Бобоҷонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иктисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 110.
8. Мадалиев А. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иктисодий тараққиёти миллий моделини яратиш асослари. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 89.
9. Ўз МА, 69 фонд, 1-рўйхат, 93-йигма жилд, 307-варақ.
10. Абдурахмонов Қ.Х., Н.Т.Шоюсупова. Аҳолини иш билан бандлиги. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011. – Б. 19.
11. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласди. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 48.
12. История населения Узбекистана (1951 – 2021г). <https://countryometers.info/ru/>.
13. O'sha manba. История населения Японии (1951 – 2021г).
14. O'sha manba. История населения США (1951 – 2021г).
15. O'sha manba. История населения Казахстана (1951 – 2021г).
16. O'sha manba. История населения Таджикистана (1951 – 2021г).